



INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Sabirova Gulnoza Xidirbayevna

Urganch davlat universiteti ingliz tili o'qituvchisi,

Jumanazarova Gulchehra Oybek qizi

Urganch davlat universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti I kurs talabasi

Annotatsiya. *Axborot texnologiyalari imkoniyatidan hamma sohalarimizda unumli foydalanib kelinmoqda. Yangi texnologiyalar nafaqat yukimizni yengil, ishimizni unumdor qiladi, balki har tomonlama rivojlanishimizga ham yordam beradi. Ushbu maqolamizda ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida zamonaviy texnologiyalarning ro'li va o'rnini tahlil qilamiz.*

Abstract. *The potential of information technologies is being used effectively in all our spheres. New technologies not only lighten our burden and make our work more productive, but also help us develop in all aspects. In this article, we analyze the role and place of modern technologies in the professional development of English language teachers.*

Абстрактный. *Потенциал информационных технологий эффективно используется во всех наших отраслях. Новые технологии не только облегчают нашу ношу и делают нашу работу более продуктивной, но и помогают нам развиваться во всех аспектах. В данной статье мы проанализируем роль и место современных технологий в профессиональном развитии преподавателей английского языка.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy texnologiya, ijtimoiy tarmoqlar, o'qitish texnikalari, ilovalar*



Key words: *modern technology, social networks, teaching techniques, applications*

Ключевые слова: *современные технологии, социальные сети, методы обучения, приложения*

Kirish.

Raqamli texnologiyalarning kirib kelishi barcha sohalarda, ayniqsa ta'lim jarayonida yangi, qiziqarli, tezkor o'qitish texnikalarini talab qila boshladi. Ya'ni hozirgi kunda har soniyada yangiliklar bilan boxabar bo'lgan yoshlarni darsga jalb qilish uchun eski (kitob, daftar, doska...) metodika yetarli emas. Zamonamizda axborot texnologiyalari yuksak darajada rivojlanayotgani sababli, kasbiy o'sish har bir insonning hayotida muhim o'rin tutmoqda.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, dunyo aholisining yarmi, ya'ni 3.8 milliard kishi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi.¹ Bu raqam yildan yilga oshib bormoqda – 2019-yildan beri 9.2 % ga oshdi. 2021-yilda foydalanuvchilar kuniga o'rtacha 2 soat 24 daqiqa vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishi ma'lum bo'lgan bo'lsa, bu raqam 2024-yilda 3soatni tashkil qildi. Raqamli olamning ajralmas qismi bo'lib ulguragan ijtimoiy tarmoqlar, avval faqatgina do'stlar bilan muloqot qilish vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, endilikda ular orqali o'qish, o'rganish, fikr almashish va hatto ish topish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning kasbiy rivojlanishga ta'siri haqida fikr yuritamiz. Ijtimoiy platformalar har bir foydalanuvchiga o'z qobiliyat va ijodiy yondashuvini keng ommaga ko'rsatish imkonini bermoqda. Masalan, grafik dizayn bilan shug'ullanuvchi shaxs o'z ishlarini **Instagram** yoki **Behance** kabi saytlarda e'lon qilib, yangi mijozlar va hamkorlar bilan tanishishi mumkin. Xuddi shuningdek,

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/ijtimoiy-tarmoqlardan-ta-lim-jarayonida-o-qitish-vositasi-sifatida-foydalanishning-yangi-yondashuvlari/viewer>



blog yurituvchi yoki jurnalistlar Telegram kabi platformalar orqali o'z materiallarini ommaga taqdim etib, o'z auditoriyasini shakllantiradi. Bunday faoliyat kasbiy jihatdan tanilish va rivojlanishga zamin yaratadi. Bugungi raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar bilim olish va almashishning muhim vositasiga aylanib bormoqda. **Facebook, YouTube, Telegram, LinkedIn** singari platformalarda turli yo'nalishlarga oid guruhlar va sahifalar faoliyat yuritmoqda. Bu resurslar foydalanuvchilarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba olish imkoniyatini ham beradi. Ayniqsa, YouTube orqali turli kasblarga oid bepul kurslar, treninglar va darslarni tomosha qilish mumkin. Til o'rganuvchilar uchun esa real nutqni eshitish, izohlarga javob yozish va muloqot qilish imkoniyati ayni muddao bo'lib xizmat qiladi.

LinkedIn ijtimoiy tarmog'i aynan mutaxassislar va ish beruvchilarni bog'lovchi muhim vositaga aylangan. Bu platformada shaxsiy profil yaratish, rezyume joylashtirish va kerakli kompaniyalar bilan aloqaga chiqish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, Telegramdagi ish e'lonlari va frilans guruhlari ham yoshlar uchun o'z iqtidorlarini ishga solish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat yangi ish topish, balki turli loyihalarda ishtirok etish, bilim va tajriba almashish uchun ham foydalidir.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda kasbiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylangan. Ularni maqsadli va ongli tarzda qo'llash orqali har bir shaxs o'z yo'lini topishi, malakasini oshirishi va yangi yutuqlarga erishishi mumkin. Asosiysi — vaqtni to'g'ri rejalashtirib, mavjud raqamli imkoniyatlardan oqilona foydalanishdir.

Asosiy qism

Dunyo miqyosida turli kasb egalari qatorida ingliz tili o'qituvchilari ham zamonaviy texnologiyalardan uyda va auditoriyada unumli foydalanib, o'zining



kasbiy mahoratini oshirishi mumkin. Quyida bir nechta usul va texnikalari bilan tanishamiz.

-Ijtimoiy tarmoqlar: Dastlab ijtimoiy tarmoqlardan faqatgina muloqot vositasi sifatida foydalanilgan bo'lsa, hozirgi kunda chet tili o'rganishning eng qulay vositasi ham bo'lib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan chet tili o'qituvchilari qanday unumli foydalanishlari mumkin.

Masalan, **telegram** ijtimoiy tarmog'ini oladigan bo'lsak, undan ham o'rganish jarayonida, ham o'qitish jarayonida foydalansa bo'ladi. 2024-yil mart oyi holatiga ko'ra, telegram 900 milliondan ortiq foydalanuvchilariga ega.² Hozirgi kunda ko'plab telegram kanallar va guruhlar minglab ingliz tili o'rganuvchilarni qamrab olgan. Bu kanallar orqali chet tili o'qituvchilari **jonli video darslari, prezentatsiyalar**, o'quvchilarni bilimini tekshirish uchun online quiz **testlar, so'rovnomlar o'tkazish** imkoniyatlari mavjud. Bunda kasbiy mahoratini oshirishdagi eng katta imkoniyatlardan biri, telegram ijtimoiy tarmog'ida "havaskor o'qituvchilar" ya'ni o'z bilimi va mahoratiga ishongan, hali diplomga ega bo'lmagan yoshlar ham online kurslar tashkil qilib, o'z malakasini oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, telegramdan turli xil **metodologik kurslar, kuchli ustozlardan mahorat darslari, ingliz tili o'qituvchilari jamoasi guruhlari** mavjud bo'lib, bu guruhlarda yosh o'qituvchilar yangi metodikalarni o'rganishi, kasbdoshlari bilan fikr almashishi mumkin. Bu imkoniyatlar albatta boshqa **Facebook, Instagram, Youtube** ijtimoiy tarmoqlarida ham mavjud bo'lib, har kim o'z sohasiga oid ma'lumotlarni topa oladi.

Chet tili o'qitishda ilovalar:

Chet tili o'qitishda eng samarali vositalardan biri hozirgi kunda yaratilayotgan turli xil ilovalar. Bu ilovalar orqali darsga o'qituvchi zamonaviy yondashuv olib

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Telegram>



kira oladi. **Grammatikada** (Basic English Grammar, English Grammar test, English Grammar Exercises), **lug‘at o‘rgatishda**(Words of wonders, Vocabulary builder, Duolingo), qolaversa chet tili ko‘nikmalarini(**reading, listening, speaking, writing**) rivojlantirishda ham turli xil ilovalar(English B2 FCE, IELTS Practice band 9...) dagi mashq va mashg‘ulotlardan foydalanish, zamonaviy yoshlarni darsga jalb qilishning eng yaxshi usuli bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Kasbiy mahoratni oshirishda zamonaviy texnologiyalar xususan ijtimoiy tarmoqlarning ro‘li katta. Darslarni jonli va qiziqarli qilishda, o‘qituvchini zamon bilan hamnafas bo‘lib, yangi metodikalar bilan tanishish, fikr almashishda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ijtimoiy-tarmoqlardan-ta-lim-jarayonida-o-qitish-vositasi-sifatida-foydalanishning-yangi-yondashuvlari/viewer>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Telegram>